



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

2025-yil 25-fevral, seshanba,
23 (24.049)-son

O'zbek xalq
maqoli

Noinsofga
erk
bersang,
elni talar

QADRIYATLARING BOQIY BO'LSIN, NAVRO'Z!

Davlatimiz rahbarining 21-fevral kuni qabul qilingan qaroriga ko'ra, bu yilgi Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizda ushbu bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida nishonlanadi.

Qarorda qayd etilgandek, sharqona yangi yil boshlanadigan qutlug' kun – Navro'zi olam asrlar davomida bahor, ezzulk, mehr-oqibat, mehnat va bonyodkorlik ramzi sifatida el-yurtimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida beqiyos o'rinn tutib kelmoqda.

Bu munavvar ayom keyingi yillarda Vatanimizda amalga oshirilayotgan "Inson qadri uchun, inson baxti uchun", degan olijanob g'oyaga hamohang bo'lib, tom ma'hoda umumxalq bayramiga aylandi hamda mamlakatimizning barcha shahar va qishloqlarida keng nishonlanmoqda.

Joriy yilda ham joylarda Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan barcha tadbirlarni milliy qadriyat va an'analarimiz hamda bugungi islohotlarimizning ma'no-mohiyatiqa, Konsepsiya bayon etilgan asosiy yo'naliш va tavsiyalarga mos holda, yuksak darajada tashkil etish, ularda yurtdoshlarimizning faol ishtirokini ta'minlash vazifasi qo'yilgan.

Bu yilgi Navro'z bayrami

muqaddas Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini va mehnat fronti faxriyalarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uyularida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlari kiritilgan va ko'makka muhtoj insonlarning holdidan xabar olish, ular uchun bayram dasturxonasi yozish hamda turli xayriya tadbirlarini o'tkazish belgilangan.

"Yashil makon" umum-milliy loyihasi doirasidagi tadbirlarni amalga oshirgan holda bayram arafasida barcha hududlarda, ko'cha, mahalla, turman va shaharlarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish aksiyalari, umumxalq hasharlar o'tkaziladi.

Bayram tadbirlari davomida hunarmandchilik ko'rgazmalari, milliy sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish, kitob ko'rgazmalar, arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari, ko'chma savdo do'konlari tashkil etiladi.

INDALLOSINI AYTGANDA...

Suhrob ZIYO,
shoir:

- Qo'rqoq odamning iste'dodi chegarasi uning jasorati chegarasi bilan o'lchanadi. Iste'dod barcha zamonlarda jasoratdir. Va barcha davrlarda haqiqatni kuylayotgan iste'dod mustabidlarning eng ashaddiy dushmanidir.



MANFAATLI SHERIKLIK

O'zbekiston xalqaro munosabatlarning bosh shioriga aylandi

Keyingi yillarda prezidentimizning ko'plab davlatlarga tashrifi va boshqa yurt rahbarlarining O'zbekistonga kelishi dunyo hamjamiyatining bizda olib borilayotgan siyosatga ishonchini ko'rsatib turibdi. Bugungi kunda mamlakatimiz diplomatik aloqa o'rnatgan davlatlar soni 158 taga yetdi. Ko'plab davlatlar bilan strategik sherikchilik shartnomalari imzolandi. Bir qator davlatlarning O'zbekistonda ilk bor elchixonalari, vakolatxonalari ochildi. Faqt bugina emas.



O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatga jiddiy qiziqish bildirmoqda. Oxirgi ikki yil ichida davlat rahbarlari uch marta uchrashdi, 2023-yil may oyida Toshkentda Qatar elchixonasi, o'sha yili dekabr oyida esa Doha O'zbekiston elchixonasi ochildi.

Bu bitim biz uchun katta ahamiyatga ega. Chunki Qatar orqali "Markaziy Osiyo – Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashshi" strategik muloqoti safiga qo'shilamiz. Bu mintaqadagi rivojlanayotgan davlatlar bilan barcha

sohalarda yaqindan hamkorlik qilish imkoniyatiqa ega bo'lamiz. Bundan tashqari, Qatarning BMT, IHT, ShHT kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tajribasini o'rganamiz. Bu mamlakatda yetakchi bo'lgan sohalar taraqqiyot jarayonini o'rganish barobarida aynan ana shu sohalar bo'yicha mamlakatimizda qo'shma loyhalarini amalga oshiramiz.

Bitimda ikki davlat o'rtaqidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash hayotning deyarli barcha yo'naliшlari bo'yicha aniq belgilab olingan. Bu bitim, uning ijo rayonini takomillashtirish yuzasidan ikkala davlat mas'ullari, mutaxassislar keleshuvga binoan mutazam mulqoq qilmoqda. Ayniqsa, fan, turizm, raqamli texnologiya, ta'lim borasida mulqot va konferensiyalar, o'zaro fikr almashtish davralari uyuştirilyapti. Olimlarimiz Qatardagi nufuzli olyi o'quv yurtlariga amaliyotga borib kelyapti. Demoqchimani, bitimning ratifikatsiya qilinishi ikki mamlakat o'rtaqidagi munosabatlarni mustahkamlash barobarida yangi O'zbekistonda belgilangan strategik rejalarimizni ro'yogba chiqarishda katta yordam beradi.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

*Aval faqat dori-darmon yozilardir
yoki operatsiyaga tavsija
etilardi, hozir vaziyat o'zgardi*

*Qoshiq ushslashni ham o'rgatish
kerak*

*Nogironligi bo'lgan kishilarga
hamma xizmat bepul*

*Umurtqa, bo'g'in xastaliklari
dangasaligimiz tufayli*

Reabilitatsiya markazi
nogironligi bor shaxslarga xizmat ko'ssatadigan bir qator tashkilotlar singari ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufiga o'tkazildi. Endilikda ushu maskan ish faoliyati ilgarididan birmuncha farq qiladi. Samarqand viloyat nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash markazida shu yillarga qadar tayanch-harakat tizimida muammosi bor bemorlar hamda ichki xastaliklar bilan og'rigan bemorlarni zamonavisi usullarda davolab, jarrohlik amaliyotlari bajarilar edi. Bugun ham ushu maskanda zarur amaliyotlar bajarilmoqda, ammo asosiy urg'u boshqa yo'nalishlarga qaratilgan. Shu masalalar haqda viloyat nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash markazi rahbari Akram BERDIYEV bilan suhbatlashdik.

- 150 o'ringa mo'ljallangan markazimizda Bugungi kunda 30 nafar shifokor faoliyat yuritadi, - deydi A.Berdiev. Markazda asosan nizomga ko'ra, tayanch harakatida muammosi bor, asab kasalliklari, ichki kasalliklar, asab xastaliklari bilan og'rigan bemorlarni davanoladi. Shuningdek, 10 o'rinni bolalar ortopediyasi bo'limi ham mavjud. 150 o'ringa mo'ljallangan shifoxonamizning 70 o'rni nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmat ko'ssatib, ularga barchasi, xususan, tibbyi xizmatdan tortib, dori-darmon, ovqatlanishgacha bo'lgan xizmatlar bepul amalgashiriladi. Qolgan 70 o'rinda pullik xizmat yo'Iga qo'yilgan, ularda ham asosan yuqorida aytligan xastalik bilan og'rigan bemorlariga yordam ko'ssatiladi.

- **Markazning ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimiga o'tkazilishi qanday o'zgarish va yangiliklarga sabab bo'ldi?**

- Muassasamizda shu paytga qadar bemorlar konservativ va operativ yo'l bilan davanolardi. Oddiy va murakkab operatsiya

TIBBIYOT MUASSASASI

IJTIMOIY REABILITATSİYA MARKAZIGA AYLANMOQDA



yo'li bilan davolanish operativ davolanish hisoblanadi. Unga an'anaviy operatsiyadan tortib eng murakkab, zamonaviy jarrohlik amaliyotlari, jumladan, umurtqa pog'onasi ning turli etiologiyali yemirilish kasalliklari, degenerativ, yirik bo'g'imirnali almashtirish, bo'g'imlarni ortroskopik usulda davolash, ortopedik nuqsonlari bor bemorlarni davolash kiradi. Shuningdek, keyingi yillarda neyroixurgik yordam tashkil etildi. Endilikda markazda bosh miyadagi jarrohlik amaliyotlari ham o'tkazilmoqda. Qator yangi tibbiy jihozlar keltirildi. Ayniqsa, 2019-yilda respublikadagi rehabilitatsiya markazlari orasida birinchilardan bo'lib MRT apparatingin keltirilishi nogironligi bo'lgan shaxslarga tashxis qo'yishda ayni muddad bo'ldi. Sababi ungacha bu bemorlarimiz ushu uskunaga ehtiyoj bo'lganda (tayanch harakat tizimida muammo bo'lgach, deyarli har birida ehtiyoj bo'lgan) boshqa tibbiyot muassasalariga, pullik xizmatdan foydalanshiga yoki qator sarsongarchiliklarga duchor bo'lishardi. Bu kabi o'nlab tibbiy jihozlar bugun nogironligi bo'lgan shaxslarni samarali davolashda qo'llanmoqda.

Keyingi paytda aynan konservativ davolanish, ya ni tibbiy rehabilitatsiya jarayoni tubdan o'zgaryapti. Davolash, operatsiya tibbiyot muassasalarining vazifasi. Bugun bizga qo'yilayotgan asosiy talab barcha zarur tibbiy muolajalarindan so'ng bemorni harakatlanish, avvalgi turmush tarziga qaytishga ko'maklashishdan iborat bo'imoqda. Muassasamizda vaqtinchada to'shakka mixlinab qolgan bemorni hayotga moslashtirish, o'zini o'zi boshqarishni o'rganish uchun ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tabbiq etila boshlandi. Ilgari markazga kelgan bemorlar-

ga tashxis qo'yildi, zarur dori-darmon va muolajalar olib borilib, zarur bo'lsa, operatsiya hamda ikki-uch xil fizioterapiya muolajalar qo'llanildi. Bugunga kelib, har bir bemor, ayniqsa, nogironligi bo'lgan bemorlarga to'liq ijtimoiy xizmat ko'sratish yo'iga qo'yilmoxda. Markazda huquqshunos, psixolog va fizioterapiya instruktchlari kabi mutaxassislar faoliyat olib borib, ular nogironligi bo'lgan shaxslarning hayotda duch kelgan muammolariga yechim topishga harakat qilmoqda. Ular bilan individual shug'ullanilmoqda, nogironligi bo'lgan shaxslarni funksional baholab, yashash qobiliyatiga ega bo'lishi uchun davolashning ijtimoiy tomonlariga e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan markazda zamonaviy LFK (jismoniy harakatlar yordamida davolash) xonasi, ergoterapiya xonasi, neyroreabilitatsiya xonasi tashkil etildi.

- Ushbu xonalarda bemorlarning davolanishi uchun qanday harakatlar amalga oshiriladi, ularning avvalgi fizioterapiyalardan farqi nimada?

- Yangi yo'nalishlar avvalo, shu paytga markazimizda mavjud bo'lgan uskunalar bilan boshlangan. Ushbu uskunalar umumiy fiziologik ahvolga emas, balki inson organizmining aynan bir qismiga samarali ta'sir etadi. Deylik, u yoki bu kasallik tufayli bemorning qoshiq ushslash funksiyasini yo'qolsa, shunga urg'u beriladi. Yoki yangi keltirilgan vertikalizator apparatasi orqali uzoq muddat to'shakda mixlinab yotgan bemorni vertikal holatga keltirish mumkin. Buning natijasida undagi mod-dalar almashinuvni yaxshilanadi, harakat qilishga intildi, hayotga nisbatan qiziqishi ortadi. Ergoterapiya esa rehabilitatsiyaning

zamonavisi usullaridan biri bo'lib, bemorlarni harakatlar bilan davolashni nazarda tutadi. Markazda ergoterapiya shartlariga to'g'ri keladigan barcha uskunalar mavjud. Bunda bemor o'z-o'zini boshqara olmaydigan holatda ham kundalik hayotida lozim bo'ladigan oddiy xatti-harakatlarni bajarishni o'rganadi.

Neyreabilitatsiya xonasida esa asab kasalliklari natijasida hojatga chiqish, qoshiq ushslash, aravachaga o'tirish kabi jarayonlarga o'rgatiladi. Asab faoliyati buzilgin bemorlarga misqa bilan davolashni qo'shdik.

Bu davolash usullarini yo'Iga qo'yishdan oldin asbob-uskunlarni yangiladiq, mutaxassislarimiz Rossiya, Qozog'istonda malaka oshirib kelishdi. Yaqinda gerontologiya yo'nalishi, ya ni qariyalar parvarishi bo'yicha Xitoya tajriba oshirdi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning bu kabi rehabilitatsiyasi uchun 70 o'rini markaz yetarli bo'lyaptimi? Qolaversa, tibbiyot sug'urta tizimiga o'tkazilmoqda. Sizlarga murojaat qilayotgan bemorlar uchun bu yangilik qay tartibda joriy etiladi?

- Hozirgi kunda bir oyning o'ida shu 70 o'rini bilan ham o'rtacha 250 kishiga tibbiy, ijtimoiy xizmat ko'satilmoqda. Lekin bu yetarli emas. Biz asosan tayanch harakatida muammolarib, ichki va asab kasalliklari ortidan nogironlikni oлган yoki vaqtinchada shu holatda bo'lgan insonlarga xizmat ko'satamiz. Markaz "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tasarrufiga o'tkazilgandan so'ng har bir tumanda o'n o'rini rehabilitatsiya bo'limlari ham tashkil etildi.

Muassasamizda shu paytga qadar nogironligi bo'lgan shaxsiga bir yilda bir marta order beriladi. Agar shoshilinching va jiddiy holat bo'lib qolqanda bir yilda ikki marta berilishi mumkin. Bemor shu yerda to'liq tekshiruvdan o'tib, sog'ligini tiklab ketadi. Tibbiy tekshiruvlardan tortib, uni davolash, yangicha fizioterapevtik muolajalar, ovqatlanish – barchasi bepul. Xuddi shu tizim bu yil ham saqlanib qolgan.

Keyingi yillarda ayniqsa, aholi orasida suyak yemirilishi bilan bog'liq xastaliklar ko'payganiyligi aytilmoqda. Buni kovid asosatasi deb baholashyotgani, ayollar orasida ham ko'paygani mutaxassis bo'limagan odamiga ham sezilish qoldi. Shu sohada uzoq yilda beri faoliyat olib borayotgan shifokor sifatida buni qanday izohlaysiz?

- Zamон, texnika rivojlanguan sari kasalliklarning soni, tashxis turlari, uni davolash usullari ham ko'paydi. Lekin inson sog'gom bo'lishi uchun lozim bo'lgan asosiy tamoyil-



lar o'zgargani yo'q. U biz, shifokorlar necha yildan beri atiyb kelayotgan jismoniy harakat, sog'gom turmush tarziga riyoq qilish, to'g'ri ovqatlanish, o'z vaqtida uxlash, antistress dasturini bilish bugun hamma davdagidan ko'ra dolzarbroq. Umurtqa pog'onasi bilan bog'liq kasalliklarga agar favqulodda holat bo'lmasa, yuz foiz o'zimiz aybdormiz, chunki harakatsiz hayot kechiriyapmiz. Bugun aynan shunday turmush tarzimiz sabab 45-50 yoshdagi bemorlarni ham tekshirib ko'sangiz, bo'g'imirlari muammolarib. Vaholanki, bu kasalliklari ilgari 60 yoshcholar oshganlarda kuzatilardi. Umurtqa pog'ona, suyak bo'g'imirlari xastaliklarga o'zimiz, kasbimiz, dan-gasaligimiz sabab deb ayta olaman.

Suyak yemirilishi xastaligi ko'payganini ko'pchilik kovidiga taqayapti. To'g'ri, kovid dan keyin o'z-o'zidan qon quyulishi holatlari ko'payib ketdi. Lekin bunda ham sog'gom turmush tarzining ahamiyati bor. Harakatsizligimiz sabab ko'paydi bu xastalik ham. Ko'proq suyuqlik iching, deb shifokorlar bong uradi. Bu bejizga emas, albatta.

O'quvchilarimizga bu boradeng eng muhim taysiyalarni aytilib o'tsangiz.

- Harakatday beqiyos davoning o'zi yo'q. Bir saat piyoda yurish insonga nafaqat salomatlik, balki tonus bag'ishlaydi. Bir soatgina piyoda yursangiz, yengil jismoniy harakatlar bilan shug'ullansangiz, nafaqat sog'gom bo'lasiz, bu harakatingiz sizga quvvat, ish-chonlik, chirov beradi.

Qolaversa, keyingi yillarda oziq-ovqatlariga kanserogen moddalarining qo'shilishi qator ichki kasalliklarni ko'paytirmoqda. Tabiiy ovqatlanishga o'rganishimiz kerak. Bundan bir necha yillar avval gafraglangan ichimliklar suyak-bo'g'imirlari muammolariga paydo bo'lishiga olib kelishi haqda fikrlar bildirligandi. Bu hamon dolzarbigicha qolmoqda.

Shuningdek, o'z vaqtida uxlash, dam olish, kitob o'qish inson hayotini tartibga solibgina qolmay, uning salomat yurishidagi muhim omillardan hamdir.

Mazmunli suhbatning uchun rahmat. Gulruh MO'MINOVA suhbatlashdi. Husan ELTOYEV (surat).

XALQ XIZMATIDA

yoki kichik tadbirning katta samaralari



Viloyatning shahar va tumanlarida 42 ta dehqon, 5 ta ixtisoslashtirilgan bozorlar va 13 ta savdo komplekslari mavjud. Ularda 45 ta avtoturargoh yaratilgan.

O'tgan yili viloyat prokururaturasi tashabbusi bilan tegishli mutaxassislarini jalb qilgan holda avtoturargohlar holati o'rganildi.

O'rganishlar davomida mavjud avtoturargohlar tegishli talablariga umuman javob bermasligi ma'lum bo'idi. Shundan kelib chiqib, amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan zarur chor-a-tadbirlar belgilandi. Natijada 45 ta avtoturargohni 141 ming kvadrat metr maydoniga asfalt va beton qoplamasi yotqizildi. Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida 130 ta kuzatuv kamerasi o'rnatildi.

Bundan tashqari, avtoturargohlarda avtomashinalar kirish-chiqishini avtomatik ravishda qayd qilib, to'lov haqidagi soliq idoralariiga ma'lumot uzatishga mo'ljalangan dastur o'rnatilishi ta'minlandi. Bu sa'y-harakatlar orqali

soliq tushumlari bir necha barobarga ko'payib, mahalliy budjetga co'shimchalar balmal baryatildi. Jumladan, avtoturargohlarning naqd pul tushumi o'tgan yili sentabr oyida 315,9 million so'mni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat tashbiralaridan so'ng oktaroy oyida 561,2 million, noyabr oyida 620,8 million, dekabr oyida esa 748,6 million so'mni tashkil qilgan.

Misol uchun, viloyat prokururaturasi tashabbusi bilan Ishtixon tumanidagi dehqon bozori hududiga tutash bo'lgan 3 ta avtoturargoh zamonaviy uskunalar bilan jihozlanib, namunaviy shaklga keltirildi. Natijada birgina "Miyonqol avto servis" mas'uliyati

cheklangan jamiyati tushumi 2023-yilda 13,4 million, o'rtacha bir oyga 1,1 million so'mni bo'lgani holda, 2024-yilning 9 oyida 20,5 million, oylik tushum 2,2 million so'mni tashkil qilgan.

Avtoturargoh zamonaviy uskunlari keyin bir oylik tushum 58,2 million so'mnga yetib, 2023-yilning oylik tushumga nisbatan 52,9 baravarga, 2024-yilning 9 oyida 20,5 million, oylik tushum 2,2 million so'mni tashkil qilgan.

Bir qarashda oddiy ko'rindan bu tashbiralar qayd qilgan bo'lsa, nazorat tashbiralaridan so'ng oktaroy oyida 561,2 million, noyabr oyida 620,8 million, dekabr oyida esa 748,6 million so'mni tashkil qilgan.

Viloyat prokururaturasi xalq xizmatidagi bu kabi ishlarni tizimli ravishda davom ettiradi.

**Jasur MARDONOV,
viloyat prokururaturasi
bo'lim boshlig'i.**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirib, yoshlarni IT sohasida yetuk mutaxassis qilib tayyorlashni maqsad qilgan. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, universitet o'z mintaqaviy markazlarini tashkil etish orqali O'zbekistonda IT ta'limining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shamoqda. Ayniqsa, Samarqand filiali xalqaro IT bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarini yetishtirish uchun ilmiy-ta'lim IT klasterini rivojlantirish yo'lida harakat qilmoqda.

SOG'LOM INSON – SOG'LOM MILLAT

KARVONI SAMARQANDGA YO'L OLDI

Hozirgi globalashuv davrida yoshlar ongu shuurida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar ularning ta'lim olish jarayonini zamonaviylik, samaradorlik va ta'sirchanlik nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, Vatanga sadoqat, yuksak ma'naviyat, bilingva chanqoqlik va jamiatida o'z o'rnni topishdek fazilatlarin shakllantirish har bir ta'lim muassasasining ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Ayniqsa, yoshlarning aql-zakovati, innovatsiyon yangiliklarga bo'lgan intilishi va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyati ularning timimsiz izlanishi bilan bog'liq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, sog'gom jamiatni barpo etishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati beqiyos. Shuningdek, sport – tinchlik elchisi, har bir davlat uchun milliy g'urur manbai hamdir.

Shu maqsadda, 2025-yilning 24-26-fevral kunlari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning hududy filiallarida "Sog'gom inson –

sog'gom millat karvoni Samarcandga yo'l oldi" shiori ostida "Yangi O'zbekistonda TATU yoshlari – bir maqsad va bir g'oya yo'lida birlashadi – Samarcand 2025" forumi o'tkazilmoqda. Forum yoshlarda vatanparvarlik ruhini oshirish, ularning sportga keng jalb qilish, intellektual salohiyatlarini yuksaltirish va milliy g'urur tuyuq'ularini mustahkamlaydi, balki Yangi O'zbekistonning ichki turizmini yanada rivojlantirishga ham hissa qo'shadi.

Samarqand yoshlarni forumga choraydi!

**Baxtiyor MAHKAMOV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti rektori, professor.**

Tadbirning ikkinchi kunida esa tala-balarning turistik madaniyatini rivojlantirish maqsadida Samarqand shahridagi tarixiy va madaniy obyektlarga tashriflar, shu jumladan, "Registon maydonida kechki 3D shou" namoyishi tashkil etiladi.

